

**TA'LIM METODLARI VA USULLARINING MA'NAVY-TARBIYAVIY
JARAYON SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI**

Avazova Xushro'ybibi Kamoltdin qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta'lim tizimiga doir bo'lgan umumiy metodlar va usullari hamda ma'naviy tarbiyaviy jarayonlarning amalga oshirish samaradorligi haqida ma'lumotlar tahlil qilingan*

Kalit so'zlar: *metod, metodologiya, metodologik asos, ta'lim jarayoni, o'quv-bilish faoliyati, og'zaki bayon qilish, muammoni qo'yish, hikoya, ma'ruza, suhbat, evristik suhbat.*

Ta'lim tizimini rivojlantirish hozirgi kunda davlatning eng muhim masalalaridan biri bo'lib kelmoqda, negaki ta'lim tizimidagi islohotlar olib borilishiga qaramay ta'lim sifatining pasayib ketayotganligi barchamizga ma'lum va bu achinarli holatga yechim sifatida har bir dars turli metodlar bilan olib borilishi haqida takliflar berilgan ya'ni metod – (yunoncha *metodos* – bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) ta'lim jarayonida taqdim etilgan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, o'zlashtirish, o'rgatish, o'rganish, bilish uchun xizmat qiladigan yo'l, yo'riqlar, usullar majmui. Maqsadga yetishishda ma'lum to'siqni yengib o'tish uchun qo'llaniladigan tadbir-choralar majmui usul (metod) deyiladi. Maqsadga yetishishda kishi bir necha, goho o'nlab, yuzlab to'siqlarni yengib o'tishiga to'g'ri keladi. Bu to'siqlarni yengish uchun tegishli usullarni ma'lum bir tartibda qo'llaydi. Maqsadga yetishishdagi qo'llaniladigan usullar tizimi uslub yoki yo'l (metodika) deyiladi. Metod yunoncha "*methodos* – tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot" so'zidan kelib chiqqan bo'lib:

- 1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish yo'li;
- 2) haqiqatga intilish, bilish, harakat qilish yo'llari;
- 3) kutilayotgan natijaga erishish usullari;
- 4) voqelikni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish usullari.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki metod tushunchasi umumiy ma'noda usul ma'nosini anglatadi. Ya'ni, biror maqsadga erishish yo'lida siz qo'llaydigan usul. Aytaylik, daraxtga chiqish uchun qo'llaydigan harakatlaringiz daraxtga chiqish metodi hisoblanadi. O'qitishda ham xuddi shunday, sizning oldingizda muammo bor – o'quvchilarga A harfini yozishni o'rgatish. Ana shu muammoni yechish uchun qo'llaydigan har qanday usullaringiz metod hisoblanaveradi, ya'ni metodologiya nima? Metodologiya - tadqiqotchining nazariy-amaliy pedagogik faoliyatini tashkil etish tamoyillari, u amal qiladigan me'yoriy-huquqiy, nazariy-falsafiy yondashuvlar, qonuniyatlar, qarashlar yig'indisi. Longman'ning Amaliy tilshunoslik lug'atida metodologiya quyidagicha ta'riflanadi: o'qitishda qo'llanadigan amaliyot hamda tartib (jarayon)larni hamda ularning prinsiplarini o'rganish. Duglas Braunning aytishicha, metodologiya - bu pedagogik amaliyotni bir butunligicha o'rganish (nazariy qarashlari bilan birga). "Qanday qilib o'qitish kerak?" degan savolga javob bo'ladigan har qanday tamoyil metodologiya bo'la oladi. Metodlarning ma'lum bir tartibda

qo'llanish jarayonida har bir harakat maqomi kishining oldiga qo'yilgan maqsad ko'rsatkichlari hamda o'sha jarayonda hukm suruvchi qonuniyatlardan kelib chiqib amalga oshiriladi. Kishi maqsad sari qilgan harakatida unga tamoyil bo'lib xizmat qiladigan maqsad ko'rsatkichlari bilan shu harakat davomida amal qilishi shart bo'lgan qonuniyatlar majmuiga metodologik asos deyiladi. Masalan: faraz qilaylik, siz o'zingizga ko'ylak tikib kiyishni maqsad qilib qo'ydingiz. Buning uchun, avval matoni xarid qilasiz bu maqsadga yetishning birinchi usuli, so'ng uni bichib, tikish, dazmollash va kiyish degan usullarni qo'llashingiz kerak bo'ladi. Bu usullar ma'lum bir ketma-ketlikda, ya'ni ma'lum bir yo'l, uslub, ya'ni metodika orqali amalga oshiriladi. Metodologiya tushunchasi ham ilmiy ish yozish va ta'lim jarayonida biroz farqlanadi. Yuqorida ta'lim jarayonidagi metodologiyani tushuntirdim. Endi ilmiy yozishdagi metodologiyani o'rganamiz: tadqiqotni amalga oshirish strategiyasi. Ya'ni, qaysi yondashuv asosida tadqiqot olib borishingiz. Masalan, siz O'zbekistonda oziq-ovqat sotib olish tajribasi haqida bilmog'chi bo'lsangiz fenomenologiya deb nomlanadigan metodologiyadan foydalanishingiz mumkin, ma'lumotlarni to'plash uchun turli usullarni qo'llaysiz (so'rovnomalar o'tkazish, iste'molchilar bilan birga xarid qilish, intervyu - ishtirokchilardan oziq-ovqat sotib olishdagi eng so'nggi tajribalarini aytib berishlarini so'rash). Ana shu strategiya sizning metodologiyangiz bo'ladi. Ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda ko'rgazmali metodlar ham alohida ahamiyatga ega. Tasvir (illyustratsiya) metodi namoyish metodiga chambarchas bog'liq bo'lsada, didaktikada alohida o'rganiladi. Ilyustratsiya narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko'rinishlari - chizma, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko'rsatishni taqozo etadi. Namoyish (demonstratsiya) metodi o'rganilayotgan obyekt harakat dinamikasini ochib berishda qo'l keladi va ayni chog'da predmetning tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi haqida to'laqonli ma'lumot berishda keng qo'llaniladi. Obyektlarni namoyish qilishda, odatda uning tashqi ko'rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o'zaro munosabatlari)ga e'tibor qaratiladi, so'ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o'rganishga o'tiladi. Ko'rsatish ko'p holatlarda o'rganilayotgan obyektlarning subyektivi yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. Amaliy metod - o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo'naltirilgan jarayonda qo'llashni taqozo etadi. Bunda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi hosil qilinadi. Amaliy ishlarni bajarishda sodir etiladigan harakatlar o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda yo'riqnoma yoki maxsus ko'rsatmani o'quvchilar e'tiboriga havola etadi. Ta'lim metodlari ta'lim vositalari bilan birgalikda qo'llaniladi. Ta'lim vositalari - bu yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan obyekt. Ta'lim vositalari katta ahamiyatga ega. Ta'limning barcha vositalari ta'lim maqsadlarini muvafaqiyatli amalga oshiradi. Ta'lim vositalari o'zida o'quv-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Odatda ular ta'lim metodlariga mos holatda foydalaniladi. Biroq, agar metodlar "qanday o'qitish" savoliga javob bersa, vositalar esa, "uning yordamida nimani o'qitish" savoliga javob beradi. An'anaviy ravishda qo'llaniladigan ta'lim vositalariga darslik, rasmlar, jadvallar, nutq, o'quv-ustaxonasi jihozlari, laboratoriyalar, axborot vositalari, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari kiradi. Dastlab mamlakatda 70-80 yillarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, 80-90 yillarda pedagogik jarayonini optimallashtirish g'oyalari ko'tarilib chiqildi va

amaliyotga tadbiiq etildi. 90-yillarning 2ikkinchi yarmidan boshlab ta'lim-tarbiyani rivojlantirish uning ilmiy asoslarini ilg'or pedagogik texnologiyalkar asosida loyihalash hamda amaliyotga tadbiiq qilish jadal suratlar bilan olib borildi. Zero, ilg'or pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya jarayonini haraklantiruvchi kuchi deb qabul qilindi. Bu borada xorijda, mustaqil hamdo'stlik mamlakatlarida, respublikamizda ta'lim-tarbiyaning ilmiy nazariyalari jamlanmasi hisoblangan pedagogika fani yo'nalishida katta hajmdagi metodologik ma'lumotlar va amaliy tajriba to'planib, ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar mazmunida ko'rish masalasi qo'yildi. Keyingi davrda ilmiy texnikaviy taraqqiyot (ITT) ning jadallashuvi, axborot oqimining ko'payishi ta'lim-tarbiya muassasalarining ta'lim jarayoniga ananaviy texnologiyalar barcha shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni qo'llashni taqqazo etadi. Malumki, an'anaviy ta'lim texnologiyasi xotiraga mo'ljallangan bo'lib, bilim oluvchilarning bilim olish, o'quv va ko'nikmalarni tarkib toptirishga qaratilgandir. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarda ta'lim-tarbiya jarayonining markaziga bilim oluvchining shaxsi qo'yiladi va uning tabiiy imkoniyatlarining rivojlanishi hamda anatomik-fiziologik, ruhiy, takomillashishini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratildi. Shu o'rinda e'tirof etish joyizki, ilmiy-texnika rivojlanishi har bir davr, har bir ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ma'naviy-siyosiy hayot takomillashuviga yordam beradi, uni mukammallashtiradi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, maskur cho'qqilarning yangi cho'qqilarini egallashga qo'llaniladigan, ta'lim va tarbiyani harakatlantiradigan usullar, yondashuvlar lozimligini taqqazo qiladi. Ta'lim metodlari tevarakatrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog'liqdir, ya'ni ular falsafiy metodologik asosga ega va ta'lim jarayonidagi qarama-qarshiliklarni, ta'lim jarayonining mohiyatini vatamoyillarini to'g'ri anglash natijasidir. Ta'lim materiali ta'lim mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantig'iga bog'liq. Pedagogik qarashlarda nazariya qancha kam ifodalangan boisa, ta'lim metodlari bu nazariyaga shuncha kam bog'liq bo'ladi.

Ta'lim metodlari oldiga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganish yo'li fikr yuritishning didaktik-materialistik usullarini, milliy mafkuraga hamda milliy qadriyatlarga asoslangan axloq, xulq-atvorning irodaviy sifatlarini shakllantirishga olib kelishi kerak.
2. Ta'lim metodi ilmiy dalillar bilan ravshanva aniq asoslangan bo'lishi lozim.
3. Ta'lim metodlarining tizimliliigi ularning samaradorlik darajasini belgilaydi.
4. Ta'lim metodlari oldiga muqarrar sur'atda qo'yiladigan yana bir talab - ularning tushunarli bo'lishi.
5. Bolani sezgi organlari orqali bilishga o'rgatish va o'quv jarayonida ko'rsatmali qurollardan iloji boricha ko'proq foydalanish.
6. Ta'lim metodlari oldiga qo'yiladigan talablardan yana biri - bu bilimlarning asosli va puxta bo'lishi.

O'quv-tarbiya jarayonida ta'lim metodlarining samaradorligini oshirish maqsadida o'qitish va o'qish metodlari majmuasidan foydalaniladi. Masalan, ma'ruza metodi tarkiban o'qituvshining o'rganilayottan mavzuni mantiqiy izchillikka, og'zaki bayon qilishi, o'quvchilarning esa o'quv materiallarini izchil tinglashi kabi metodlardan iborat. Ma'ruza metodidan shu yo'sinda foydalanish o'qituvchining, o'quvchining ham faolligi talablariga, binobarin, ta'limning samaradorligini oshirish ehtiyojlariqa mos kelmaydi. Zero, ma'ruzaning yuqoridagi ko'rinishi faqat bolalar xotirasiga mo'ljallangan. Ma'ruza ham bolalar xotirasiga,

ham ular tafakkuriga mo'ljallab tashkil etilganda, uning samaradorligi yanada oshadi. tajribali o'qituvchilar ma'ruza metodining samaradorligini oshirish maqsadida turli variantlardan foydalanishadi.

1. 1-variant ma'ruzada oldin o'quvchilar oldiga muammolar qo'yish- muammoning bajarilishini muhokama qilish va shu asosda o'quv materiallarini mantiqiy izchillikda bayon etish, ma'ruzadan oldin qo'yilgan muammo bolalarda bilishga ehtiyojni uyg'otadi. Shu tufayli o'quvchi ta'lim jarayonining faol sub'ektiga aylanadi.

2. 2-variant ma'ruzadan oldin bolalar faoliyatidan o'tgan omillarni, odatdagi muloqot yo'li bilan o'rganilgan bilimlarni tahlil etish. Bu variantda ma'ruza bolalar faoliyatidan o'tgan omillarni, bilimlarni tahlil qilish asosida tashkil etiladi.

3. 3-variant oldin o'rganilgan bilimlar bilan bugungi yangi o'quv materiali o'zaro daxldor bo'lsa, bilimlarni esga tushirish maqsadida suhbat o'tkaziladi. Suhbat yo'li bilan o'rganilgan va endi o'rganiladigan bilimlar o'rtasida tabiiy bog'lanish hosil qilinadi. Ma'ruza shu bog'lanishning davomi sifatida o'tkaziladi.

O'quvchi faoliyati:

1. ko'rgazma qurolni tahlil etish;
2. qo'yilgan muammo to'g'risida o'ylash;
3. o'qituvchi tushuntirishlarini tinglash;
4. xulosalarni esda olib qolish;
5. bilimlarni o'quv va hayotiy sharoitlarga tatbiq qilish.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, ta'limda hech bir metod sof holda qo'llanilmaydi, har bir ta'lim metodi tarkiban o'qitish metodlari va o'qish metodlaridan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A., Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T., Iste'dod, 2010. -141 b.
2. Najmidinova K.U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni. Falsafa fan. nom. diss. - T.: 2006.
3. U.Nigmanova. "Tarbiya va huquq fanlarni o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma 80-113 bet